

**“TASDIQLAYMAN”**

**Navbahor tumani hokimi,  
Giyohvandlik vositalari va  
psixotrop moddalar ustidan  
nazorat qilish bo‘yicha tuman  
komissiya raisi**



**A.Rashidov**

**2026-yil 6-fevral**

**Narkotik moddalarni nazorat qilish tuman komissiyasining yig‘ilish**

**BAYONI №06-26/12**

**2026-yil 6-fevral**

**Navbahor tumani**

- Raislik qiluvchi:** - **A.Rashidov** – tuman hokimi
- Ishtirok etganlar:** - Tuman komissiya a‘zolari, tegishli tuman muassasa, korxon va tashkilotlari rahbarlari (ro‘yxat asosida).

**K U N T A R T I B I:**

**2026-yil 2-fevralda Navoiy viloyati hokimi N.Tursunov rahbarligida o‘tkazilgan 12-01/6-sonli “Yoshlar orasida giyohvandlik va psixotrop moddalarning tarqatilishiga qarshi kurashish” keng qamrovli tezkor-profilaktik oyliginin tumanda yuqori saviyada tashkil etish to‘g‘risidagi yig‘ilish bayonida berilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash haqida.**

*(Rashidov, Tuxliyev, Qurbonov, Bobonazarov, Gaffarov,.....Rashidov.)*

Yig'ilishda, tuman hokimligi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish tuman komissiyasi raisi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, tibbiyot birlashmasi va mahallalar bilan hamkorlikda narkotik moddalarning noqonuniy muomalasi va giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatchilik tarqalishining suratlari va qo'lamini aniqlash, yoshlar orasida giyohvandlik jinoyatlarini oldini olishga qaratilgan profilaktika tadbirlarini samarali tashkil etish, aholi o'rtasida tarqalishiga qarshi kurashish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, 2026-yil 1-fevraldan 1-martga qadar Respublikamizda "Yoshlar orasida giyohvand va psixotrop moddalarning tarqatilishiga qarshi kurashish oyligi" deb e'lon qilinganligi va tumanda ushbu oylik doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilish ishtirokchilarining bildirgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, yig'ilish,

### **QAROR QILADI:**

1.O'zbekiston Respublikasi Narkotik moddalarni nazorat qilish Davlat komissiyasining 2026-yil 1-fevraldan 1-martga qadar "Yoshlar orasida giyohvand vositalarning tarqatilishiga qarshi kurash oyligi"ni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risidagi topshirig'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2."Yoshlar orasida giyohvand vositalarning tarqatilishiga qarshi kurash oyligi" ni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida quyidagilar:

"Yoshlar orasida giyohvand va psixotrop moddalarning tarqatilishiga qarshi kurashish" keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga,

tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'lim muassasalarida 2026-yilning fevral oyi davomida "Yoshlar orasida giyohvand va psixotrop moddalarning tarqatilishiga qarshi kurashish" tezkor-profilaktik mavzusida o'tkaziladigan tadbirlar rejasi 2-ilovaga,

texnikumlarda 2026-yilning fevral oyi davomida "Yoshlar orasida giyohvand va psixotrop moddalarning tarqatilishiga qarshi kurashish" tezkor-profilaktik mavzusida o'tkaziladigan tadbirlar rejasi 3-ilovaga,

giyohvandlikning zararli illatlari hamda "Yoshlar orasida giyohvand va psixotrop moddalarning tarqatilishiga qarshi kurashish" tezkor-profilaktik tadbirlarini mazmun-mohiyatini o'zida aks ettiruvchi bannerlar (Bilbordlar)ning ko'rinishlari va ularni tumanda joylashtirish rejasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

3.Tuman hokimi o'rinbosari (A.Tuxliyev), Yoshlar ishlari tuman bo'limi (B.Dilshodov), tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (A.Qarshiyev), tuman madaniyat bo'limi (A.Eshmurodov), tuman tibbiyot birlashmasi (B.Gaffarov), Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi (F.Boymamatov) hamda tumandagi aloqador korxonalar, muassasa, tashkilotlar bilan hamkorlikda:

yoshlar o'rtasida "Biz giyohvandlikka qarshimiz" shiori ostida chora-tadbirlar rejasi va dasturlarini ishlab chiqib, unda turli sport musobaqalari, uchrashuv, davra suhbatlari, muloqot kechalari, rasmlar ko'rik-tanlovlarni o'tkazishga alohida e'tibor qaratsin;

narkotik moddalar kontrabandasi, ular bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan, xususan giyohvandlikni salbiy oqibatlari haqida ommabop buklet va boshqa tarqatma materiallarni tayyorlab ulardan oylik doirasidagi tadbirlarda foydalansin;

giyohvand moddalarsiz sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish shiori ostida yoshlar o'rtasida sport musobaqalarini o'tkazish va g'oliblarni sovg'alar bilan taqdirlashni tashkil qilinsin;

giyohvandlikning salbiy oqibatlari haqida axborot yoritilgan ommabop buklet va boshqa tarqatma materiallarni tayyorlash va oylik doirasidagi tadbirlar davomida tarqatish vazifalari topshirilsin.

4.Tuman hokimligi matbuot kotibi (E.Bobonazarov), Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi (F.Boymamatov) bilan birgalikda:

giyohvandlikning oldini olishga qaratilgan maxsus ijtimoiy roliklarni tayyorlash;

narkotik moddalarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurash va giyohvandlikni oldini olish borasida o'z vakolatlari doirasida ko'rilayotgan choralar, oldinga qo'yilgan maqsadlar va kelgusidagi rejalarni yorituvchi materiallarni tumanning rasmiy saytiga joylashtirish;

giyohvandlikka qarshi kurash oyligi doirasidagi barcha tadbirlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish topshirilsin.

5.Tuman hokimi maslahatchisi (Lavozimiga ko'ra), Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi (F.Boymamatov) bilan birgalikda:

xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuniga bag'ishlangan ko'rgazmali ijtimoiy reklama mavzusidagi bannerlarni tayyorlash va tuman markazlaridagi yirik ko'chalari, shuningdek, tadbir o'tkazilishi rejalashtirilgan joylarga yaqin ko'chalarga joylashtirilishi tashkil etilsin.

6.Tuman ichki ishlar bo'limi (B.Qurbonov), Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi (F.Boymamatov), Yoshlar ishlari tuman bo'limi (B.Dilshodov), bilan birgalikda:

giyohvandlikka qarshi mazmundagi stikerlarni ishlab chiqib jamoat transportlariga joylashtirilsin.

7.Mazkur yig'ilish bayoni qarorining bajarilishini nazorat qilish tuman hokimligi yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'anaviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari A.Tuxliyev zimmasiga yuklatilsin.

**Yig'ilishni bayonlashtirdi: X.Haydarov**

**Giyohvandlik vositalari va  
psixotrop moddalar ustidan  
nazorat qilish bo'yicha  
tuman komissiyasining 2026-yil  
6-fevraldagi 06-26/12-son yig'ilish bayoniga  
1-ilova**

**Navbahor tumani hokimligi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish bo'yicha tuman komissiyasining "Yoshlar orasida giyohvand va psixotrop moddalarning tarqatilishiga qarshi kurashish" tezkor-profilaktik tadbirini o'tkazish bo'yicha  
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirning nomi</b>	<b>Ijrochilar</b>	<b>Tadbirning o'tkazish muddatlari</b>	<b>Izoh</b>
<b>1.</b>	Umumta'lim maktablari, texnikumlar, oliy ta'lim muassasasi shuningdek, xodimlarining aksariyatini yoshlar tashkil etadigan tuman korxonalar va tashkilotlar kesimida o'tkaziladigan profilaktik tadbirlar rejasi ishlab chiqish va amalga oshirish.	Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, tuman Yoshlar ishlari Navbahor tumani bo'limi, tuman tibbiyot birlashmasi, tuman O'zbekiston mahallalari uyushmasi Navbahor tumani bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi	Ishlab chiqish 2026-yil 15-fevralga qadar  Oylik davomida	Jadvalda har bir tadbir uchun hamkor tashkilotlardan mas'ul shaxslar, o'tkazish vaqti va joyi, ishtirokchilar soni aniq belgilanadi.
<b>2.</b>	Tezkor materiallar, real voqea va jinoyat ishlari materiallari asosida giyohvand vositalar bilan bog'liq jinoyatlarning ayanchli oqibatlarini yorituvchi tadbirlar tashkil etish.	Tuman IIB, tumandagi aloqador korxonalar va tashkilotlar	2026-yil 15-fevralga qadar	IIBning jinoyat qidiruv bo'limi bilan hamkorlikda tumandagi aloqador korxonalar va tashkilotlar oylik davomidagi profilaktik tadbirlarda foydalaniladi.
<b>3.</b>	Jamoat joylarida, tuman yo'lovchi tashish transport vositalarida sog'lom	Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi,	Oylik davomida	Targ'ibotni qamrovini kengaytirishda barcha reklama

	turmush tarzini targ'ib qiluvchi ijtimoiy reklama, stiker va targ'ibot vositalarini joylashtirish.	tuman ichki ishlar bo'limi		vositlari, shu jumladan, "Navbahor" gazetasi tahririyati, OAV salohiyatidan foydalanish zarur.
4.	Giyohvand vositalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq xatti-harakatlarning huquqiy oqibatlari va giyohvandlikni zararlarini yorituvchi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi tarqatma materiallar ( <i>buklet, eslatma, plakat va h.</i> )larni yoshlarga mos ravishda ishlab chiqish va joylarga yetkazish.	Tuman IIB, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi, tuman tibbiyot birlashmasi	2026-yil 15-fevralga qadar	Tarqatma materiallarni tayyorlashda tuman tibbiyot birlashmasi tizimi mutaxassislarining maslahatlariga tayanish lozim.
5.	O'quv muassasalarida ota-onalar ishtirokida, korxonalar va tashkilotlarda yoshlar orasida obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan fuqarolar, madaniyat, sport, jamiyat va din arboblari, tibbiyot birlashmasi tizimi, huquqni muhofaza qilish idoralari vakillarini jalb etgan holda giyohvandlik va narkojinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan ma'ruza va uchrashuvlarni o'tkazish.	Tuman IIB, Yoshlar ishlari Navbahor tumani bo'limi tuman bo'limi, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, tuman tibbiyot birlashmasi tuman O'zbekiston mahallalari uyushmasi Navbahor tumani bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi	Oylik davomida jadvalga ko'ra	Tuman IIB boshlig'ining o'rinbosarlari, va tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining mas'ul xodimlari tomonidan umumta'lim maktablar rahbarlari bilan kelishilgan holda o'tkaziladi.
6.	Umumta'lim maktablari va yoshlar faoliyat ko'rsatayotgan boshqa obyektlarda narkotik moddalarni tarqatuvchi, narkotik moddalar iste'mol qilishga jalb qiluvchi shaxslarni erta aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv va profilaktik tadbirlarni tashkil etish.	Tuman IIB, tuman tibbiyot birlashmasi, tuman O'zbekiston mahallalari uyushmasi Navbahor tumani bo'limi	Oylik davomida	Narkotiklar bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishi mumkin bo'lgan obyektlarni nazorat etishda ko'ngilochar muassasalar.
7.	Texnikumlar, umumta'lim maktablari va yoshlar faoliyat ko'rsatayotgan boshqa	Tuman IIB, Yoshlar ishlari Navbahor tumani bo'limi	Oylik davomida	Narkotiklar bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishi mumkin

	obyektlarda narkotik moddalarni tarqatuvchi, narkotik moddalar iste'mol qilishga jalb qiluvchi shaxslarni erta aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv va profilaktik tadbirlarni tashkil etish.	tuman bo'limi, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, texnikumlar, tuman sport maktabi, tuman tibbiyot birlashmasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi		bo'lgan obyektlarni nazorat etishda ko'ngilochar muassasalar.
8.	Mahalla fuqarolar yig'inilarida yoshlar, ayniqsa uyushmagan yoshlar o'rtasida "Sreet sport", "Workout", "Mahallamiz pahlavonlari" va boshqa sport musobaqalarini birlamchi bosqichlarini tashkil etish va o'tkazish.	Tuman sport maktabi, tuman O'zbekiston mahallalari uyushmasi Navbahor tumani bo'limi, tuman Yoshlar ishlari Navbahor tumani bo'limi	Oylik davomida	Musobaqalarga uyushmagan yoshlar, ichki ishlar idorasida profilaktik hisobda turuvchi, tarbiyasi og'ir yoshlar, kam ta'minlangan oilalar farzadlarini imkon qadar jalb etish choralarini ko'rish lozim.
9.	Ta'lim muassasalarning o'quvchi yoshlari o'rtasida "Mega-sport" musobaqalarining birlamchi bosqichini tashkil etish va o'tkazish.	Tuman sport maktabi, tuman Yoshlar ishlari Navbahor tumani bo'limi	Oylik davomida	Musobaqalarga uyushmagan yoshlar, ichki ishlar idorasida profilaktik hisobda turuvchi, tarbiyasi og'ir yoshlar, kam ta'minlangan oilalar farzadlarini imkon qadar jalb etish choralarini ko'rish lozim.
10.	Yoshlar yoshlar yetakchilari, mahallalarda aholi orasida giyohvandlik vositalarini tarqalishini va suiste'molining oldini olish, giyohvandlikka moyilligi bo'lgan yoshlar bilan individual tarzda profilaktik tadbirlarni tashkil etish masalalari bo'yicha ichki ishlar bo'limi va tibbiyot birlashmasi mutaxassislari ishtirokida davra suhbatlarini tashkil etish.	Tuman IIB, O'zbekiston mahallalari uyushmasi Navbahor tumani bo'limi, Narkotik moddalarni nazorat qilish bo'yicha tuman komissiyasi	Oylik davomida	Tadbirlar tuman kesimida alohida jadval asosida tashkil etilishi lozim.

11.	Barcha umumta'lim maktablarida giyohvandlikning ayanchli oqibatlarini yoritib beruvchi ijodiy ishlar tanlovini tashkil etish.	Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Oylik davomida	Tanlovlar insho, she'r, rasm va boshqa turdagi ijodiy yo'nalishlarda o'tkaziladi.
12.	Narkotik moddalarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurash va giyohvandlikni oldini olish borasida ko'rilayotgan choralar, ularning qamrovi va maqsadini yorituvchi informasion materiallarni ijtimoiy tarmoqlarda, tuman gazetasida keng yoritish.	Tuman IIB, Narkotik moddalarni nazorat qilish tuman komissiyasi, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari	Oylik davomida	Axborot tumanning turli, shu jumladan, chekka hududlarida o'tkazilgan tadbirlar asosida tayyorlanadi.
13.	Rejalashtirilgan tadbirlarning joylardagi ijrosini muvofiqlashtirish va natijalari haqida umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlarni va fotoalbomlarni tuman hokimligi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish bo'yicha mintaqaviy komissiyasiga taqdim etish.	Narkotik moddalarni nazorat qilish bo'yicha tuman komissiyasi, tuman IIB	2026-yil 1-martga qadar	Umumlashtirilgan axborot, bayonnoma va fotoalbomlar ijrochilar tomonidan hududiy komissiyaga taqdim etiladigan hisobot asosida tayyorlanadi.
14.	O'tkazilgan tezkor-profilaktik tadbirlarni yakuniy natijalarini umumlashtirish va tuman narkotik moddalarni nazorat qilish komissiyasiga axborot kiritish.	Tuman hokimligi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish bo'yicha hududiy komissiyasi mas'ul kotibi	2026-yil 5-martga qadar	Hisobotga fotoalbom ilova qilinishi mumkin.

**Giyohvandlik vositalari va  
psixotrop moddalar ustidan  
nazorat qilish bo'yicha  
tuman komissiyasining  
2026-yil 6-fevraldagi 06 -26/12-son yig'ilish bayoniga  
2-ilova**

**Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'lim muassasalarida 2026-yilning fevral oyi davomida  
"Yoshlar orasida giyohvand va psixotrop moddalarning tarqatilishiga qarshi kurashish" tezkor-profilaktik mavzusida  
o'tkaziladigan  
TADBIRLAR REJASI**

<b>№</b>	<b>Ta'lim muassasasi nomi</b>	<b>Tadbir o'tkaziladigan joy va muddati</b>	<b>Tadbirda ishtirok etuvchilar</b>	<b>Ijrosi uchun mas'ul</b>
<b>1.</b>	Navbahor tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi barcha umumta'lim maktablari	2026-yil fevral oyi davomida Barcha ta'lim muassasalarida	Maktab o'qituvchi va yuqori sinf o'quvchilari	Navbahor tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (A.Qarshiyev)

**Giyohvandlik vositalari va  
psixotrop moddalar ustidan  
nazorat qilish bo'yicha  
tuman komissiyasining  
2026-yil 6-fevraldagi 06-26/12-son yig'ilish bayoniga  
3-ilova**

**Oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi akademik liseylar, kasb-xunar maktablari va texnikumlarida  
2026-yilning fevral oyi davomida "Yoshlar orasida giyohvand va psixotrop moddalarning tarqatilishiga qarshi kurashish"  
mavzusida o'tkaziladigan  
TADBIRLAR REJASI**

<b>№</b>	<b>Ta'lim muassasasi nomi</b>	<b>Ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot tadbirlarini o'tkazish muddati</b>	<b>Tadbirni o'tkazishga mas'ullar va targ'ibochilar ro'yxati</b>
<b>1.</b>	Navbahor tumani 1-son politexnikumi	2026-yil 19-fevral	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, yoshlar yetakchisi
<b>2.</b>	Navbahor tumani 2-son politexnikumi	2026-yil 20-fevral	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, yoshlar yetakchisi
<b>3</b>	Navbahor tumani 3-son politexnikumi	2026-yil 21-fevral	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, yoshlar yetakchisi

**Giyohvandlik vositalari va  
psixotrop moddalar ustidan  
nazorat qilish bo'yicha  
tuman komissiyasining  
2026-yil 6-fevraldagi 06-26/12-son yig'ilish bayoniga  
4-ilova**

**Giyohvandlikning zararli illatlari hamda "Yoshlar orasida giyohvand va psixotrop moddalarning tarqatilishiga qarshi  
kurashish" tezkor-profilaktik tadbirlarini mazmun-mohiyatini o'zida aks ettiruvchi bannerlar (Bilbordlar)ning  
ko'rinishlari va ularni tumanda joylashtirish**

**REJASI**

<b>№</b>	<b>Tuman nomi</b>	<b>Targ'ibot bannerlari soni</b>
1.	Navbahor tumani	2 ta

***Izoh:** Targ'ibot bannerlari aholi gavjum, markaziy ko'chalar, chorrahalar hamda ta'lim muassasalarining ko'rinarli joylariga o'rnatiladi.*